

ISSN: 2181-4562

DOI Journal 10.56017/2181-4562



IMFAKTOR
PAGES

JOCAA

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ

Journal of Culture and Art

Volume I, Issue 3

КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

MAY | 2023



ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 3-СОН

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО
ТОМ-I, НОМЕР-3

JOURNAL OF CULTURE AND ART
VOLUME-I, ISSUE-3

ТОШКЕНТ – 2023

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

№ 3 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4562-2023-3>

БОШ МУҲАРРИР:

Халикулова Гўзал Эркиновна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти профессори в.б., Санъатшунослик фанлари номзоди

МАСЬУЛ МУҲАРРИР:

Мелиқўзиев Иқбол
Мамасодиқович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудири, профессор в.б., Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ:

Касимов Нозим Козимович

Маданият ва туризм вазирлиги “Таълим ва илм-фанни ривожлантириш бошқармаси” бошлиғи, профессор

Ходжаметова Гулчира
Илишевна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус филиали “Санъатшунослик” факультети декани, Тарих фанлари номзоди, профессор

Абдувоҳидов Фахриддин
Мелигалиевич

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудири, доцент, Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Кадиров Рамз Турабович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Саҳна нутқи” кафедраси доценти

Умаров Мамур
Боташикович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Санъатшунослик ва маданиятшунослик” кафедраси профессори в.б., фалсафа фанлари номзоди

Худоев Ғани Мұхаммадович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудири, Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Бердиханова Шахида
Нурлыбаевна

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати институти "Ўзбек мақоми тарихи ва назарияси" кафедраси мудири, санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Дўсанов Раҳимжон
Раимқулович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, “катта ўқитувчи”, мустақил тадқиқотчи

Суннатиллаев Асатилло
Суннатович

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати институти “Илмий тадқиқотлар, инновациялар ва илмий-педагогик кадрлар тайёрлаш” бўлими бошлиғи, мустақил изланувчи (PhD)

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўtkazilgan.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-үй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

RAJEPBAEV Batir Bekimbetovich

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali
“Madaniyat va kutubxona axborot faoliyati” kafedrasi assistent o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7953428>*

DARSDA MUSIQIY-BADIY DIDNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEZONLARI

АННОТАЦИЯ

Mazkur maqolada musiqiy makteblarda pedoglarning musiqiy didni shakllantirish mezonlari ko'rsatib o'tiladi. Asosan musiqiy didni shakllanishi tarixdan bizga qadar qay yosinda qay darajada yetib kelganligi, hozirgi kunda uming rivojlanib o'zida mujassam etgan mezonlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: pedagogika, musiqa, musiqa makteblari, musiqiy did, dars o'tish, mustaqil ta'lif, musiqa va san'at etikasi, musiqa etikasi.

RAJEPBAEV Batir Bekimbetovich

*Nukus branch of the Uzbek State Institute of art and culture
Assistant Teacher of the department “culture and Library Information activity”*

FORMATION OF MUSICAL AND ARTISTIC TASTE IN THE LESSON PEDAGOGICAL CRITERIA

ANNOTATION

This article will consider the criteria for the formation of musical taste of teachers in music schools. Basically, we are talking about the extent to which the formation of musical taste has reached us from history, the criteria for its development and implementation at the present time.

Keywords: pedagogy, music, music schools, musical taste, classroom, independent education, music and art ethics, music ethics.

РАДЖЕПБАЕВ Батир Бекимбетович

*Нукусский филиал Узбекского государственного института искусства
и культуры, ассистент преподавателя кафедры “Культура
и библиотечно-информационная деятельность”*

ФОРМИРОВАНИЯ МУЗЫКАЛЬНО-ХУДОЖЕСТВЕННОГО ВКУСА НА УРОКЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ КРИТЕРИИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье будут рассмотрены критерии формирования музыкального вкуса педагогов в музыкальных школах. В основном речь идет о том, в какой степени формирование музыкального вкуса дошло до нас из истории, критерии его развития и воплощения в настоящее время.

Ключевые слова: педагогика, музыка, музыкальные школы, музыкальный вкус, преподавание, самостоятельное обучение, этика музыки и искусства, этика музыки.

Bizga tarixdan ma'lumki dunyodagi mavjud bo'lgan barcha jamiyatning kelajagi, yashash sharoiti, unung taraqqiyoti san'ati va madaniyati qay darajada taraqqiy etgani bilan belgilanadi. Shu boisdan hozirgi mustaqil taraqqiyot yo'lidan ildam borayotgan davlatimizning uzlucksiz talimni isloh qilishda va takomilashtirishda, yangi sifat bosqichiga tezroq ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish uchun hamda samaradorligini oshirishda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani ham hozirgi kunda bizga sir emas.

Ta'lim-tarbiya jarayoni juda murakkab jarayon hisonlanadi. Shuning uchun ham birinchi navbatda pedagog "o'zi ta'lim berayotgan fanlarini chuqur bilishi, ta'limiy faoliyat o'tkazish metodikasini puxta o'zlashtirib olgan bo'lishi zarur" [1].

Ta'lim jarayoni va murakkabligi shundaki, modernizatsiya sharoitida respublikamizda ta'limning samaradorligiga erishish bu degani, ko'plab omillar, xususiyat va tendensiylar bo'lishini talab qiladi. Birinchi navbatda, ta'lim oluvchi o'quvchi va ta'lim beruvchi o'qituvchidagi motiv shakllanganligi, va ularning orasida o'zaro mansub bo'lgan munosabat faolligi nuqtai nazaridan bog'langanligi, o'quvchining yangi bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojini qondirishga harakat qilishi, O'qituvchi darsni tashkil etishda uning mukammalligiga, to'g'ri tashkil etilishiga, metodika esa talabga javob beradigan yuqori darajada tuzilganligi kabi xususiyatlarni o'zida aniq mujassamlashtirgan bo'lishi lozim [2].

Ta'limning barcha bo'g'inlarida ta'lim mazmuni, shu jumladan musiqa ta'limi va tarbiyasi mazmuni ham milliy negizda yangilandi. Fan dastur va darsliklari yangittan ishlab chiqildi va ularni takomillashtirish ishlari bugungi kunda ham muvaffaqiyatli tarzda davom ettirilmoqda. Shuniyam ta'kidlash kerakki bu kabi siljishlarda ta'limda musiqiy pedagogik ilmiy ishlarini yuritayotgan bir qator olimlarimizning ishlari natijyasida.

"Milliy musiqamiz qonuniyatlariga qiyoslab qardosh xalqlar va umumbashariy musiqa madaniyati bilan tanishish, ya'ni "ta'limda umuminsoniy va milliy-madaniy qadriyatlarning ustivorligi"ga amal qilish musiqa o'qitishning muhim didaktik yo'nalishi hisoblanadi" [3].

O'zbek va qoraqalpoq milliy musiqa san'ati respublikamizda yashayatgan xalqning madaniy taraqqiyoti bilan bog'liq holda xalq hayotining san'atdagi badiiy in'ikosi sifatida rivojlanib kelgan. Duniyoga ma'lumki "sharq xalqlari tarixi, jumladan adabiyoti, san'ati haqida o'lmash asarlar yaratgan allomalar, va shoirlar asarlarining barcha fanlar qatori musiqa san'atining ming yillik tarixi, o'ziga yarasha ijro uslublari, an'analari, janriy yo'naliishlari, turli udumlar va marosimlar bilan bog'liq jihatlari haqida ham qimmatli bo'lgan ma'lumotlarga keng o'rinn berilgan" [4].

Qoraqalpoq xalqining og'zaki an'anadagi xalq musiqasi mazmunida xalq ijtimoiy hayotining deyarli barcha qirralari o'z aksini topgan desak biz also yanglishmaymiz. Ma'lumki ushbu san'at turi negizida asta sekin sinfiy jamiyat paydo bo'ladi shu bilan musiqa san'atida og'zaki an'anadagi ko'plab kasbiy musiqa san'atining paydo bo'lishiga o'z-o'zidan olib keldi. Sinfiy jamiyatdagi tabaqlanishning musiqa san'atidagi ham xalq va yuqori tabaqaga mansub bo'lgan, saroy musiqa ijrochiligi duniyoga keldi. Saroy kasbiy musiqasining vujudga kelishi, musiqa san'ati bilan shug'ullanadiganlarni o'rganuvchi va o'rgatuvchi professional san'atkorlarni shakllanishiga keng imkoniyat yaratdi.

Musiqa madaniyatining qadimiy ildizlari Avesto yodgorligi bilan boglanib ketadi. Zardushgox dastlab badixa yo'li bilan ijro etilgan qo'shiqlardir. Avestoning marosimiy qismlari (yasna), Axuramazda va boshqa mahbudlarga bag'ishlangan madhiyalar ham aslida muayyan ijro yo'llari bolgan yakkaxon va ommaviy qo'shiqlardir. Panjikent, Ayritom, Tuproqqaloa (Xorazm) kabi yodgorliklaridagi III-VIII asrlarga oid musiqa asboblarining suratlari va bo'rtma tasvirlari bizgacha etib kelgan [5].

Sharq xalqlari uyg'onish davriga ayniqsa O'rta Osiyo, shu jumladan qoraqalpoq va o'zbek milliy musiqasi hamda musiqa ilmining etuk rivojlanishida eng muhim rivojlanishidagi eng zarur davr bo'lib, bu davrda o'zbek va qoraqalpoq milliy musiqasining ayniqsa og'zaki an'anadagi kasbiy (mumtoz musiqasi) janri rivoji yo'lida muhim ishlar amalga oshirildi. Bu rivojlanish o'zini qay yusinda nimalarda o'z ifodasini topdi degan savollarga biz "quyidagicha javob berishimiz mumkin:

1. Musiqa ilmi (nazariy va amaliy ijrochiligi, shuning milliy cholg‘ular) da nihoyatda katta ahamiyatga molik maxsus asarlar yozildi;
2. Yangi cholg‘ular yaratildi takomillashtirildi;
3. Mumtoz (maqom) musiqaning shakllanishi, rivojlanishida muhim ahamiyatga ega cholg‘u kuylari va qo‘shiqlar vujudga keldi;
4. San’at sohasida ijod qiluvchi professional kishilar paydo bo‘ldi va ular uchun imkoniyat yaratildi;
5. Sharq uyg‘onish davri bиринчи bosqichida o‘zbek mumtoz musiqasining eng noyob va murakkab turi maqom ijodiyoti yo‘nalishida muvaffaqiyatli ishlar amalga oshirildi” [6].

Mamlakatimiz yillar o‘tib mustaqillikka erishilganimizdan song jamiyatning ijtimoiy madaniy hayotini va uning barcha sohalaridagi bo‘lgani kabi musiqa san’atidagi oz’likni yaniy milliy negizini mustahkamlash, yosh avlodlarga milliy musiqiy merosni chuqur va atroflicha o‘rganishi, ta’limning barcha bo‘g‘inlarida milliy musiqiy namunalarni o‘rganishi, shular orqali o‘quvchilar badiiy tafakkuri va musiqiy didini shakllantirishga ustuvor ahamiyat berildi. Musiqa san’ati barcha san’at turlari kabi inson ruhiyati hamda hayotdagi voqeyleklarni o‘ziga xos badiiy ifoda etuvchi vosita sifatida, shuningdek, butun olamni badiiy idrok etishning o‘ziga xos shakli bo‘lib “musiqa idroki dars mashg‘ulotlarida yetakchi faoliyat sifatida muhim rol o‘ynaydi” [7].

Musiqa asari xoh kompazitor, xoh bastakor yoki xalq ijodiyotiga tegishli bo‘lmasin, muayyan ijodkor shaxs tomonidan yaratiladi. O‘z navbatida ijodkor muayyan tasavvur, kechinma, his-tuyg‘ularidagi ifodasi o‘laroq badiiy obrazlar vositasida yuksak ideallar, insoniy fazilatlarni o‘z asarida yoritadi. Musiqada tabiat manzaralari, insonlarga xos o‘ziga yarasha xususiyatlar, ijtimoiy munosabatlar ruhiy holatlar, xursandchilik yoki aksinchalik salbiy holat-g‘am, alam, tushkunlik, iztirob, firoq kabi holatlar ifodalananadi.

Inson ruhiyatida musiqiy ohanglar ta’sirida muayyan psixologik holatlar tasavvurli kechinma, his tuyg‘u (xursandchilik lazzatlanish, qoniqish, zavq, jo‘sinqinlik, g‘urur, g‘amginlik, qayg‘urish, iztirob chekish, achinish, hamdardlik) lar kabi bir necha his tuyg‘ular paydo bo‘ladi va musiqaga unda tasvirlangan voqe, hodisa va qarashlarga o‘ziga xos ijobiy va salbiy munosabatlarni, kayfiyatni yuzaga keltiradi. Bu kayfiyat ijobiy va salbiy bo‘lishidan qat’iy nazar shaxsning ongida, tafakkurida muayyan qarash, fikr, g‘oyalarni bahsiga sabab bo‘ladi.

Bu jarayonning tizimli va davomiylik tamoyillariga ko‘ra ta’lim mazmunidagi tadrijiy sifati ravishda rivojlanib borishi insonlarda didlar bahsini yuzaga keltirib chiqaradi. Ya’ni asta-sekinlik bilan ta’lim jarayonida o‘quvchi musiqaning sehrli olamida qanchalik kirib borishi davomida unda asarlarni “yaxshi”, “yomon”, “yoqimli”, “yoqimsiz”, “mazmunli”, “sayoz”, “badiiy saviyasi yuqori, “yuksak ijob mahsuli”, “ijro mahorati sust, past”, “mukammal asar”, “bo‘sh”, “yangi, mustaqil ijod mahsuli”, “boshqa asarlar ta’siri ostida yozilgan” (o‘g‘irlangan, taqlid qilingan), “milliy uslibda yaratilgan”, “milliylikdan yiroq,” “ko‘philikka manzur bo‘ladigan, yoki tor doiradagi muxlislarbop” va boshqa fikrlarni, vujudga keltiradi. Ayni shunday fikr, histuyg‘u, tasavvur, qarashlar o‘quvchi shaxsida musiqiy didni shakllanganlik darajasini belgilovchi mezonlar hisoblanadi [8].

Dars jarayonida turli janr, uslubdagi, turli xalqlar va millatlarning musiqa namunalari bilan tanishish davomida o‘quvchilar muayyan dunyoqarashda aks etgan hayotdagi obrazlar ta’sirida yashash imkoniyatiga ega bo‘ladilar, turli estetik kechinmalarning ta’sirida ularda ma’naviy-estetik fikrlar o‘z-o‘zidan vujudga keladi. Bu esa asta-sekin badiiy didni shakllanishiga olib keladi. O‘quvchilarda bilishi ya’ni bilimning zahirasi qancha ko‘p to‘plansa, ular har xil san’at asarlaridagi obrazlarni, mazmunini, mohiyatini shuncha to‘la va chuqur tushunishlari va anglashlari mumkin. Ijro etilayotgan obrazlarga va ular orqali voqelikdagi hodisalarga, hissiy kechinmalarga estetik munosabat o‘quvchilarni badiiy-estetik didini tarbiyalashdagi muhim mezonlardan hisoblanadi.

“Kattaroq yoshdagagi bolalar ayrim voqeiliklar o‘rtasidagi aloqadorlikni anglab yetish, oddiy umumlashtirish qobiliyati – masalan, musiqa xarakterini aniqlash, ijro etilayotgan asarning belgilariga qarab, u quvnoq, bayramona, og‘ir yoki qayg‘uli ekanligini ayta olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Ular qo‘yilayotgan talablar: turli xil xarakterdagi qo‘shiqlarni qanday kuylash, og‘ir kuy yoki quvnoq qo‘shiqqa qanday harakat qilish kerakligini yaxshi tushunadilar. Shuningdek, musiqaga bo‘lgan qiziqishlari ortadi: u yoki bu faoliyat turi, musiqa janriga moyillik bildiradilar” [9].

O‘quvchi-yoshlarni musiqa darslari jarayonida o‘rganilayotgan, tinglash uchun tanlab olingan musiqa asarlarining badiiy yetukligi, g‘oyaviy badiiy mazmuni, xarakterini, yoqimliliginini to‘g‘ri baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishga erishish uchun eng avvalo o‘quvchining o‘zida ushbu xislatlarni egallahsga bo‘lgan intilishini kuchaytirish lozim bo‘ladi [10].

Shundagina o‘quvchilarda musiqiy asarni to‘g‘ri idrok qilish, baholashni mashq qildirishga, voqelikning, san’atning, estetik xossalarni o‘zlashtirish imkoniyatlarini kuchaytirishga olib keladi. Bu jarayonda musiqa asarlari muhim o‘rin tutadi, lekin alohida va hal qiluvchi emas. Bu o‘rinda musiqiy-estetik tarbiyaning sinfda, sinfdan va maktabdan tashqari hamda oiladagi faoliyatlar uyg‘unligi katta rol o‘ynaydi. O‘quvchilarning musiqa san’ati va u orqali hayotni badiiy idrok qilish qobiliyatları, tafakkuri, dunyoqarashi va badiiy-estetik didi barqaror shakllanishiga yordam beruvchi shart-sharoit yaratiladi. Respublikamizning barcha musiqa va san’at maktablarida bu borada ilmiy amaliy ishlar olib borilayotganligi sababi biz ishonamizki o‘quvchilarning musiqiy didini rivojlanishi butun hayoti davomida duniyonи o‘rganishga bo‘lgan intilivchanlikni ham oshiradi.

ИҚТИБОСЛАР/СНОСКИ/REFERENCES

- 1 A. Soliyev, M. Jabborova. "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari ongida milliy musiqiy ohanglarga moyillikni shakllantirishda milly cholq 'ularning o'rni" SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. 2022 № 1.
- 2 P. M. Ulug'bek qizi. ta'lim tizimini modernizatsiyalash sharoitida innovatsiyalarni joriy etish va ulardan samarali foydalanish istiqbollari "science and Education" Scientific Journal. 2020 yil
- 3 O. Sh.Nematillo qizi. Boshlang'ich sinf musiqa madaniyati darslari jarayonida o'quvchilarning musiqiy-badiiy didini shakllantirish. Magistrlik dissertatsiya. Samarqand 2012-yil.
- 4 O. Sh.Nematillo qizi. Boshlang'ich sinf musiqa madaniyati darslari jarayonida o'quvchilarning musiqiy-badiiy didini shakllantirish. Magistrlik dissertatsiya. Samarqand 2012-yil.
- 5 Akramzoda Mirzoanvar. Musiqa "talim samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish uslublari" (pedagogika va san'at kollejlari misolida). Magistrlik dissertatsiyasi. Tashkent 2015-y.
- 6 Abdreymov, M. B. (2021). QORAQALPOQ ZAMONAVIY MILLIY KINODAGI IZLANISHLAR XARAKTERI. *Oriental Art and Culture*, 2(4), 44-49.
- 7 Abdreymov, M. B. (2020). QORAQOLPOQ KINEMATOGRAFIYASIGA NAZAR: "TANKA" FILMI MISOLIDA. *Интернаука*, (16-4), 49-50.
- 8 BEKPOLATOVICH, M. A. Ways of Formation of Karakalpakfilm in the Pre-Independence Years. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 7(4), 1-3.
- 9 Bekpolatovich, A. M. Specific Features of Sound Directing in Karakalpak National Cinema. *International Journal on Integrated Education*, 4(9), 103-108.
- 10 Абдреймов, М. Б. (2021). ҚОРАҚАЛПОҚ КИНЕМАТОГРАФИЯСИДА ОВОЗ РЕЖИССЁРИГИ МУАММОЛАРИ. *Oriental Art and Culture*, (8), 22-25.
- 11 Em bergenovich, K. J. (2021). The Representativeof the Karakalpak Theater. *Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT)*, 12(11), 7207-7213.
- 12 O. Sh. Nematillo qizi. Boshlang'ich sinf musiqa madaniyati darslari jarayonida o'quvchilarning musiqiy-badiiy didini shakllantirish. Magistrlik dissertatsiya. Samarqand 2012-yil.
- 13 R.S. Ravshanbekovna. R.O. Azod o'g'li. O'quvchilarning musiqiy his-tuyg'usini rivojlanтирish va badiiy didini o'stirishda yangi ta'lim mazmuniga qo'yiladigan talablar. IJODKOR O'QITUVCHI JURNALI. 2022 y. 24 Son.
- 14 G. Siddiqova. JDPI Sirtqi bo'limi o'qituvchisi. Laziza Xoshimova JDPI Musiqa ta'limi va san'at yo'nalishi magistranti "Musiqaning bolalar hayoti va faoliyatida tutgan o'rni" Журнал музыки и искусстваю 2022 г.
- 15 O. Sh. Nematillo qizi. Boshlang'ich sinf musiqa madaniyati darslari jarayonida o'quvchilarning musiqiy-badiiy didini shakllantirish. Magistrlik dissertatsiya. Samarqand 2012-yil.

ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 3-СОН

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО
ТОМ-I, НОМЕР-3

JOURNAL OF CULTURE AND ART
VOLUME-I, ISSUE-3

«Маданият ва санъат» электрон журнали
2023 йил 24 февраль куни
№ 065356-сонли гувоҳнома билан
оммавий ахборот воситаси сифатида
давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти
чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент
шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ,
Чилонзор 24-мавзеси, 2-үй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz